

DOSTONCHILIK MUAMMOLARINI O'RGANISH

Rustamova Dilshoda Uktam qizi

Kattaqo'rg'on davlat pedagogika instituti 1-bosqich talabasi.

Suyunova. D

Ilmiy rahbar.

rdilshoda032@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20290960>

Annotatsiya. Bu maqolaning mazmuni va maqsadi shundan iboratki, dostonchilik muammolarini o'rganish va ularga ba'zi yechimlarni taklif qilishdan iborat. Maqolada dostonchilik tarxi, bugungi kundagi o'rni va kelajakda uning rivojlanishi uchun qanday dolzarblilikka e'tibor qaratishimiz zarur.

Kalit so'zlar: dostonchilik, dostonlar, do'mbra, dostonchilik muammolari, audio dostonlar.

Abstract. The purpose and content of this article is to study the problems of epic poetry and to propose some solutions to them. The article focuses on the history of epic poetry, its role today, and its relevance for its development in the future.

Key words: epic poetry, epics, dombra, epics poetry problems, audio epics.

Аннотация. Цель и содержание данной статьи — изучение проблем эпической поэзии и предложение некоторых путей их решения. Статья фокусируется на истории эпической поэзии, её роли сегодня и её актуальности для будущего развития.

Ключевые слова: эпическая поэзия, эпосы, домбра, проблемы эпической поэзии, аудиоэпосы.

“Doston” atamasi va uning janr xususiyati borasida adabiyotshunoslikda qator fikrlar mavjud. Xususan, ushbu atama qaysi jihatlariga ko'ra qanday asarlarga mansubligi hanuzgacha ochilmay qolmoqda. Ba'zilar uning og'zaki shakli doston desa, ayrimlar uning yozma shakldagisini haqiqiy dostonlardir, deyishadi. Shuningdek, adabiyotshunoslik ilmida XX asargacha yaratilgan bu tipdagi asarlarni “doston”, undan keyingilarini esa “poema” deb atash ustuvor qarash bo'lib kelmoqda.[1,174-175.]

Qolaversa, bu boradagi tadqiqotlarda ham ushbu muammo yetarlicha hamda shaffof talqin qilingan emas, yoxud bir yoqlama qarash bilan cheklanishlar mavjud. Masalan adabiyotshunos Erkin Xudoyberdiyev o'zining "Adabiyotshunoslikka kirish" qo'llanmasida dostonlarning janr xususiyatlari berilmasdan, asosiy e'tibor aniq dostonlarning [Navoiyning "Farhod va Shirin"dostoni] tahliliga asosiy e'tibor qaratilgan hamda bir o'rinda dostonlarni "poema" deb atash lozimligi ta'kidlab o'tilgan. [2,235.]

Dostonchilik san'atining jonli og'zaki ijro jarayonlarida yashashi va davom etishi baxshilarning barqaror an'analar doirasida shakllangan ijro mahoratlari bilan bog'lanadi.

Dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi va ustoz-shogirdlik an'analari, baxshi shaxsi va uning doston ijrosi, an'ana va badiha, jamoa hamda individual ijro, baxshilarning o'z ijodlariga bo'lgan tanqidiy yondashuv, baxshi va uning tinglovchisi, so'z va so'zning badiiy ta'sir kuchiga e'tibor hamda epik ijrochining estetik qarashlari baxshichilik san'atining jonli og'zaki an'analarda davom etishi va ijod qilishiga sabab bo'lgan.

Jonli ijodiy jarayonda kechgan mana shunday xususiyatlar bir qator dostonchilik markazlari – o‘nlab baxshichilik maktablarining faoliyat yuritib, xalq ma’naviy tafakkurini yuksaltirishda munosib hissa qo‘shganligidan dalolat beradi.

Adabiyotshunos N.Hotamov va B.Sarimsoqovlar tomonidan yaratilgan "Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati" da esa doston janri va uning og‘zaki hamda yozma shakllari borasidagi o‘ziga xosliklar atroflicha yoritishga qilingan. Lekin ushbu tahlil ham doston janrining barcha qirralari to‘liq ochib berilmagan.[3, 83-84.]

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritgan va yuritayotgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo va Qoraqalpog‘iston dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir. Dostonchilik san‘atining jonli og‘zaki ijro jarayonlarida yashashi va davom etishi baxshilarning barqaror an‘analar doirasida shakllangan ijro mahoratlari bilan bog‘lanadi. Dostonchilik maktablarining yuzaga kelishi va ustoz-shogirdlik an‘analari, baxshi shaxsi va uning doston ijrosi, an‘ana va badiha, jamoa va individual ijro, baxshilarning o‘z ijodlariga bo‘lgan tanqidiy yondashuv, baxshi va uning tinglovchisiva so‘zning badiiy ta’sir kuchiga e’tibor hamda epik ijrochining estetik qarashlari baxshichilik san‘atining jonliog‘zaki an‘analarda davom etishi va ijod qilishiga sabab bo‘lgan. Jonli ijodiy jarayonda kechgan mana shundayxususiyatlar bir qator dostonchilik markazlari – o‘nlab baxshichilik maktablarining faoliyat yuritib, xalqma’naviy tafakkurini yuksaltirishda munosib hissa qo‘shganligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasidafaoliyat yuritgan va yuritayotgan Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona, Xorazm, Surxondaryo,Qashqadaryo va Qoraqalpog‘iston dostonchilik maktablari buning yorqin misolidir.

An'anaviy ijrochilik muammosi."Alpomish" asrlar davomida baxshilar tomonidan og‘zaki tarzda kuylanib kelgan. Har bir baxshi uni o‘z uslubida ijro etgan, bu esa dostonning turli variantlari paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.Bugungi kunda esa: jonli ijroning kamayib borishi va baxshilar soni qisqarib bormoqda.Natijada "Alpomish" faqat kitob sahifasida qolib ketish xavfiga ega. Bu esa dostonchilikning eng muhim jihati — ijro san‘ati yo‘qolishiga olib keladi.

Variantlarning yo‘qolishi va standartlashuv "Alpomish"ning o‘nlab variantlari mavjud bo‘lib, ular turli hududlarda shakllangan. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo maktablarida aytilgan variantlar o‘ziga xos. Ammo zamonaviy nashrlar ko‘pincha bitta variantni asos qilib oladi. Natijada boshqa variantlar unutiladi dostonning boyligi kamayadi bu esa dostonchilikdagi xilma-xillik muammosini yuzaga chiqaradi. Yoshlarda qiziqishning pasayishi. Ko'pgina dostonlar vatanparvarlik, sadoqat, mardlik kabi g‘oyalar ilgari surilgan.Lekin bugungi yoshlar ko‘proq zamonaviy kontentga qiziqmoqda.

Shunga o'xshash ko'pgina omillar tufayli dostonchilikda ko'pgina muammolar va, hattoki, yo'qotishlar kuzatilmoqda.

Hodi Zaripov O‘zbek folklorshunosligining asoschilaridan biri. "O‘zbek xalq dostonlari"Baxshilar maktabi", dostonchilik an‘analari va ularning rivojlanishini o‘rganagan.

Dostonlarni to‘plash va ilmiy nashr qilishda katta xizmat qilgan. Dostonchilik muammolarini o‘rganish bo‘yicha turli olimlarning fikr va mulohazalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu soha bugungi kunda ham ilmiy, ham madaniy jihatdan dolzarbligicha qolmoqda.

Xususan, tadqiqotchilar dostonlarning og‘zaki an‘ana orqali yetib kelgani sababli ularning variantlari ko‘pligi, matn barqarorligining nisbiyligi va ijro jarayonining muhimligi kabi masalalarga alohida e‘tibor qaratadilar. Ayrim olimlar dostonchilikni faqat folklor namunasi sifatida emas, balki xalq tafakkuri, tarixiy xotira va milliy o‘zlikni aks ettiruvchi murakkab tizim sifatida baholaydilar.

Muhokamalar davomida yana bir muhim jihat — zamonaviy davrda dostonchilik an‘analarining saqlanishi va rivojlanishi masalasidir. Texnologiyalar rivoji, global madaniyat ta‘siri natijasida an‘anaviy baxshichilik maktablari faoliyati susayib borayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar dostonlarni yozma shaklga o‘tkazish va ilmiy nashrlar orqali ommalashtirishni ijobiy holat sifatida ko‘rsatsalar, boshqalar bu jarayonda jonli ijro ruhiyati yo‘qolib borayotganini ta‘kidlaydilar.

Xulosa qilib aytganda, dostonchilik muammolarini o‘rganish ko‘p qirrali yondashuvni talab etadi. Ilmiy izlanishlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, bu merosni saqlash uchun nafaqat nazariy tadqiqotlar, balki amaliy choralar — baxshilarni qo‘llab-quvvatlash, yosh avlodni ushbu san‘atga jalb qilish va zamonaviy vositalar orqali targ‘ib etish muhimdir. Faqat shu yo‘l bilan dostonchilik an‘anasi o‘zining tarixiy ahamiyatini saqlab qolgan holda kelajak avlodlarga yetkazilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Adabiyot turlari va janrlari. 1-kitob. "Fan",1991, 174-175-betlar
2. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. "Sharq",2008, 235-bet.
3. Hotamov N. va b . Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati . 1979, 83-84-betlar.
4. "O'zbek og'zaki poetik ijodi" .T." O'qituvchi", 1990, 227-269-betlar.
5. "O'zbek xalq ijodi bo'yicha tadqiqotlar", 3-kitob,Toshkent 1976-yil.
6. "O'zbek folklor ocherklari", Birinchi kitob, Toshkent,"Fan",1988-yil.